



REKREATIONS RESURLARNI BAHOLASH VA TURISTIK MARSHRUTLARNI XARITALASH: ILMIY-USLUBIY YONDASHUVLAR

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

18-aprel 2025-yil



Buxoro-2025



Faroxiddin, Aliuseynov Imron Qodirova Nozima Rasulovna, Qodirova Dilnoza Rasul qizi	TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MARKETINGNI QO'LLASHNING AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI.....	35
Aslanov Abdullo Xojimurodovich	SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA TURIZMDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	39
Nilufar Axrorova Uktamovna	MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA TALABALAR TURIZMIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI.....	42
Azimov Olimjon Orifovich	HUDUDLARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHDA TURIZM SOHASI: INSTITUTIONAL ISLOHOTLAR VA XORIJIY TAJIRIBALAR.....	46
Jumaniyazova Ozodaxon Zaripboy qizi, Xamroyev Xalim Rozikovich	MADANIY-TARIXIY TURIZMNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (GERMANIYA DAVLATI MISOLIDA)	52
UMIROV JASURBEK TEMIRQULIYEVICH	XALQARO TURIZMDA MADANIYATLAR XILMA-XILLIGI, QADRIYATLAR MASALALARI.....	57
Isoyeva Madina Nu'mon qizi	BUXORO VOHASI REKREATSIYA RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI.....	59
Ruziyeva Gulinoz Fatillovna	MILLIY HUNARMANDCHILIKNI DIVERSIFIKATSIYALASH ORQALI ISTE'MOLCHILARGA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	63
2-SHO'BA. GIS TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI KARTOGRAFIYA: TURISTIK XARITALASHDAGI INNOVATSIYALAR		
С.С.Давлатов	ИННОВАЦИИ В ТУРИЗМЕ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВОЙ КАРТОГРАФИИ.....	68
Yokubjonova Xulkarbonu Yokubovna	INTERNATIONAL COOPERATION FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN HOSPITALITY IN UZBEKISTAN (GIZ): the importance of preliminary seminar-training in the Fergana valley	72
Хамраев Х.Р.	О ВОЗМОЖНОСТЯХ СОЗДАНИЯ ТЕМАТИЧЕСКОГО ПАРКА «АВИЦЕНА» В БУХАРЕ.....	77
Qilichov Muhriddin	BUXORO SHAHRI MADANIY MEROS OBYEKTLARIDAN TURIZMDA BARQAROR FOYDALANISH IMKONIYATLARI TAHLILI: GIS ASOSIDA.....	82
Yoriyeva Dilafruz Oltinova	BUXORO VILOYATIDA JOYLASHTIRISH VOSITALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR TAHLILI.....	88
Salimova Sarvinoz Fazliddin qizi	ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TURISTIK MARSHRUTLARNI ISHLAB CHIQISHDAGI AHAMIYATI.....	92
Ismailova Sitara orkulovna	ELLA MAILARTNING "TURKISTAN SOLO" ASARIDAGI MARSHRUTINI INTERAKTIV XARITAGA KIRITISHNING ILMIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	95
3-SHO'BA. TARIXIY-MADANIY MEROS VA EKOTURIZMNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI		
Abror Juraev	EXPLORING RECREATIONAL AND ECO-TOURISM PREFERENCES IN BUKHARA REGION: A SURVEY-BASED STUDY.....	99
Yuldosheva Bibirajab Mirjonova	HISTORICAL FOUNDATIONS AND PROSPECTS OF INTEGRATING BUKHARA REGION'S CULTURAL AND ETHNOGRAPHIC HERITAGE INTO CONTEMPORARY TOURISM	

- **Turist madaniyati**- bu turist boradigan mamlakatda o'zining asl madaniyatini xulq-atvorini namoyon qilishidir
- **Mezbon madaniyati**- bu turist ayni vaqtda tashrif buyurgan mamlakat hududidagi madaniyatdir. Bu shuningdek milliy madaniyat ham deb ataladi va ya'ni mahalliy xalq an'analari va urf – odatlarini o'zida mujassamlashtiradi
- **Turizm madaniyati**- sayohatning barcha ishtirokchilari o'rtasida bo'ladigan tartib qoidalar asosida kechadi. Ya'ni xizmat va mahsulot yaratuvchilar, turoperatorlar, turagentlar, mehmonxona biznesi vakillari hamda turistlar o'rtasida o'zaro madaniyatdir.

Madaniyat, qadriyat, urf-odat va an'analar har bir xalqning o'ziga xosligini bildirib turib, ushbu tushunchalar xalqaro turistik oqimlarni o'ziga jalp qilishda juda qiziq hodisalar hisoblanadi. Chetga sayohat qiladigan turistlarning aksariyati o'zga xalqlarning madaniyati, turmush tarzi, milliy bayramlari urf-odatlariga qiziqishadi. Turizm sohasida qadriyatlar va ularning turist tanloviga ta'sirini yetarlicha o'rganilmagan. Taniqli olimlar Pitst va Vudsayd qadriyatlarni tashrif buyuruvchilar xarakteriga ko'ra tanlov ehtimollarini o'rganishgan. Ularning tadqitoricha turistlar o'xshash madaniyat va qadriyatlar amal qiladigan mintaqalarga sayohat qilishga moyil bo'ladilar. Pizam va Kalontane esa qadriyatlar shkalasi turistning dam olish xarakteriga asoslanib tadqiq qilinadi, deydi. Umumiy qilib aytganda, sayyohning sayohat uchun destinatsiya tanlovida qadriyatlar ham muhim o'rin egallaydi. Xulosa qilib aytganda madaniyat - insoniyatning butun faoliyatidagi to'g'ri yo'l va natijadir. Uni har bir insoning o'ziga xosligida uchratish va his qilish mumkin. Xalqaro tashriflarda ayniqsa bu jarayon yaqqol seziladi. Madaniyat insonlarni qanday yashashga va qanday fikrlashga, qanday faoliyat bilan shug'ullanishga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Temirkulovich, U. J. (2021). Importance of entrepreneurship development in tourism industry (Bukhara region). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 700-704.
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Madaniyat>
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qadriyat>
4. Xayrullayeva, N., Kadirova, S., & Aripova, M. (2021). The Role of Education and Sustainable Tourism in Achieving Cost Effectiveness during a Pandemic. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 8(8).
5. Xamroyev X.R. Xalqaro turizm darslik: 2021-yil, 124-bet.

BUXORO VOHASI REKREATSIYA RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI

Isoyeva Madina Nu'mon qizi
Buxoro davlat universiteti Tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro vohasining rekreatsiya resurslari va ulardan foydalanishning geografik asoslari, jumladan tabiiy geografiya hamda resursshunoslik fanining nazariy va amaliy masalalariga doir ma'lumotlar tahlil qilingan va munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: tabiiy resurs, iqlim resurslari, Buxoro vohasi, tabiiy resurslarni boshqarish, landshaft, antropogen landshaft, cho'l zonasi, madaniy landshaft,

Rekreatsiya resurslari insonning dam olishi, salomatligini tiklashi va turizm faoliyati bilan shug'ullanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratadigan tabiiy va madaniy obyektlar majmuidir. Ushbu resurslar sayyohlik va iqtisodiy rivojlanishning muhim omili bo'lib, ular turli mamlakatlar va hududlarda turizmni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ularni samarali boshqarish va himoya qilish orqali turizmni yanada rivojlantirish, milliy iqtisodiyotni mustahkamlash va atrof-muhitni muhofaza

qilish mumkin. Shuning uchun davlat va xususiy sektor ushbu resurslardan oqilona foydalanish strategiyalarini ishlab chiqishi lozim

Mamlakatimiz rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli bunyodkorlik va obodonchilik ishlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizning har jabhasida o'z samarasini namoyon etmoqda. Islohotlar izchilligi, avvalo, xalqimizning turmush sharoitini yaxshilash, barcha sohalarida ularni rozi qilishimiz, madaniy va ma'naviy salohiyatimizning yaxshilanib borayotganidan dalolat beradi. Alohida e'tirof etish joizki, asrlar davomida bizning ma'naviy-me'ros obyektlarimizning bugungi kunga qadar etib kelishining o'zi buyuk bir jasorat hisoblanadi. Ota-bobolarimizning me'morchilik sohasida bunyod etgan tarixiy inshootlari bugungi kunda unib, o'sib kelayotgan yosh avlodimiz uchun namuna maktabini o'taydi va albatta, bizga g'urur iftixor to'yg'usini shakllantiradi.

Jahonda shiddat bilan davom etayotgan globallashuv, ijtimoiy jarayonlarning murakkablashishi va tezlashishi oqibatida mamlakatlaridagi tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash va ularni asl holaticha saqlab qolish muammosi yuzaga kelmoqda. Xususan, 2019 yilning iyun oyida Boku shahrida YUNESKOning Butunjahon madaniy meros masalalariga bag'ishlangan, 43-sessiyasida O'zbekistonning moddiy madaniyat yodgorliklari borasidagi muhokamalar yakuni bo'yicha qo'mitaning jahon merosi obyektlarini saqlashga doir tegishli qaror va tavsiyalari asosida tarixiy obidalarni ta'mirlashning tarixiy tajribasi, ilmiy-metodologik asosi va muammolarini aniqlashga ehtiyoj tobora ortib borayotganligi alohida qayd etildi. Bundan tashqari 2022-2026 yillarda "Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (28.09.2022 yildagi 543-sonli) qabul qilinishi Buxoro vohasi turizm salohiyatining istiqbolini yanada kuchaytirdi. Ko'hna va qadim Buxoro vohasi jahon mamlakatlari e'tiborini yurtimizga jalb etadigan, alohida madaniyati va turistik salohiyatga ega bo'lgan hudud hisoblanadi. Zarafshon daryosining quyi oqimida joylashgan va qadimdan O'rta Osiyoning muhim madaniy va savdo markazlaridan biri bo'lib kelgan bu hududga ma'muriy jihatdan Buxoro shahri va viloyat tarkibidagi bir necha tumanlar kiradi.

Buxoro vohasi asosan cho'l va chalacho'l iqlim mintaqalarida joylashgan bo'lsa ham, xilma-xil tabiiy resurslarga boy. Bularga birinchi navbatda, hududning mineral suv manbalariga alohida to'xtalib o'tish joiz. Buxoro viloyatida juda ko'p mineral suv zaxiralari aniqlangan. Buxoro shahridagi "Sitorai Moxi xosa" mialeral suvli dam olish maskani aholi sog'lig'ini tiklash maqsadida tashkil etilgan bo'lsa, Quljuqtov, Qoraxotin, Jing'ildi, Oyoqog'itma botig'i atroflaridan topilgan suvlardan xo'jalikda turli maqsadlarda foydalaniladi.

Buxoro viloyat iqlimi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Okean va ochiq dengizlardan minglab kilometr uzollikda bo'lganligidan viloyatimiz tipik qurg'oqchil o'lkalar qatoriga kiradi. Bunday iqlimli o'lkalarning bahor fasli (Buxoro shahrida aprel oyining o'rtacha harorati 15.9⁰c) kuz fasliga nisbatan (oktyabr oyining o'rtacha harorati 12.8⁰c) issiq, dengiz iqlimida (Qora dengiz sohillari) kuz (oktyabr oyining o'rtacha harorati 16.2⁰c) bahorga (aprel oyining o'rtacha harorati 11.5⁰c) nisbatan issiq bo'ladi. Demak, qurg'oqchil va dengiz iqlimli o'lkalar bir xil geografik joylashuvga ega bo'lishiga qaramasdan hamma fasllar bir xil isimas ekan. (U.N.Nurov "Buxoro viloyati iqlimi va uning resurslari" Buxoro 1996y 5b) . Birgina Buxoro vohasi bir yilda o'rtacha quyoshdan oladigan issiqlik energiyasi 1300 mln kall yoki 200 mln tonna ko'mir yoqqanda beradigan energiyaga teng. Shuning uchun bu issiqlik energiyasidan xo'jalikning turli maqsadlarida foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish davri keldi. Quyosh elektro stansiyalari, quyosh batareyalari yordamida uylarni isitish, isitgichlar, sovutgichlar barpo etish orqali toza tabiiy energiya manbaalaridan foydalanish yo'llari ishlab chiqilmoqda. Iqlim resurslaridan rekreatsiya maqsadida ham foydalanish mumkin. Yozda havoning juda quruq bo'lishi va haroratning bir kecha kunduzda o'zgarishidan davolanish maqsadlarida foydalansa bo'ladi, ayniqsa, o'pka, jigar, buyrak va revmatizm kasalliklarini davolashda qo'llaniladi, issiq suvdan foydalanib turli xil davolanish sanatoriylari ham bunyod etilgan. Shuningdek, tuzli balchiq, cho'l zonasidagi issiq qum, shifobaxsh loy, suvi minerallashgan quduq va ko'llar atrofida ham salomatlikni tiklash muassasalarini tashkil qilish imkoniyati bor. Mazkur maskanlarda brusellyoz, radikulit va asab tizimi bilan bog'liq ba'zi kasalliklarni ham davolasa bo'ladi. Buxoro viloyatida bunday tipdagi sanatoriylardan bir nechtasi faoliyat olib bormoqda. Masalan, Buxoro shahri- Sitorai Moxi Xossa, issiq suv sanatoriylari, Olot tumanida sho'r suv va issiq qum yordamida davolash yo'lga qo'yilgan.

Buxoro viloyati o'zining boy madaniy, diniy va tabiiy resurslari bilan nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo sayyohlarini jalb qiladigan muhim turistik hudud hisoblanadi. Ulardan madaniy – tarixiy, ekologik turizm resurslari hamda diniy turizm resurslari alohida ajralib turadi. Vohada mavjud turistik-rekratsiya resurslarini bir qancha guruhlariga ajratish mumkin.

1. Tarixiy-madaniy turizm. Buxoro shahri va uning atrofida yuzlab tarixiy obidalar mavjud bo'lib, ularning aksariyati YuNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan:

Poyi-Kalon majmuasi – Kalon minorasi, Kalon masjidi va Mir Arab madrasasi kabilarni o'z ichiga olgan mashhur me'moriy majmua.

Ark qal'asi – qadimgi Buxoro hukmdorlarining qarorgohi bo'lib, tarixiy ahamiyatga ega.

Labi Hovuz ansambli – Nodir Devonbegi madrasasi va Ko'kaldosh madrasasi bilan mashhur.

Sitorai Mohi Xosa – Buxoro amirining yozgi saroyi.

Chor Bakr nekropoli – Islomiy merosning muhim qismi bo'lgan ziyoratgoh.

2. Diniy turizm. Buxoro islom olamining eng muhim markazlaridan biri hisoblanadi. Bu yerda ko'plab mashhur ulamolar yashagan va dafn etilgan.

Bahouddin Naqshband majmuasi – Naqshbandiya tariqatining asoschisi Bahouddin Naqshband maqbarasi joylashgan.

Chashma Ayub maqbarasi – Islomiy rivoyatlarga ko'ra, payg'ambar Ayub (a.s.) bilan bog'liq muqaddas joy. Mavlono Jaloliddin Rumiy otasi Bahouddin Valad maqbarasi – ziyoratgoh sifatida mashhur.

3. Ekoturizm va tabiiy resurslar. Buxoro vohasi asosan cho'l landshaftlariga ega bo'lsa-da, bir qancha qiziqarli tabiiy maskanlar mavjud.

Jeyran ekomarkazi – noyob jeyranlar va boshqa hayvonlar saqlanadigan qo'riqxon.

Tuproqqal'a va Ayazqal'a yodgorliklari – qadimgi Xorazmshohlar davriga oid qoldiqlar.

Qizilqum cho'li – sarguzasht turizmi va safari uchun imkoniyatlar mavjud.

4. Mahalliy an'anaviy va gastronomik turizm. Buxoro viloyati boy an'anaviy madaniyat va milliy taomlari bilan ham mashhur. Buxoro palovi, shashlik, manti va somsa kabi taomlari bilan mehmonlarni jalb qiladi. Hunarmandchilik markazlari – zargarlik, gilamdo'zlik, kashtachilik kabi milliy hunarmandchilik turlari rivojlangan.

5. Termal va sog'lomlashtirish turizmi. G'ijduvon va Shofirkon mineral suvlari – tabiiy davolovchi suvlari bilan mashhur. Qorako'l balneologik maskani – davolash sanatoriylari mavjud.

Rekreatsiya–turistik resurslardan oqilona foydalanish masalalarini tahlil qilish quyidagicha xulosalar chiqarishga asos bo'ladi:

Birinchidan, infratuzilmani rivojlantirish muhimdir.

Buxoroning mavjud tarixiy-madaniy merosidan samarali foydalanish uchun zamonaviy mehmonxona, restoran va boshqa xizmat ko'rsatish obyektlari barpo etilishi lozim. Yo'l transport infratuzilmasini yaxshilash, aeroport va temir yo'l stansiyalarini modernizatsiya qilish orqali sayyohlarning kelish va ketish jarayonini osonlashtirish mumkin.

Ikkinchidan, turizmning yangi yo'nalishlarini rivojlantirish lozim.

Hozirgi kunda Buxoro asosan tarixiy va ziyorat turizmi bilan mashhur bo'lsa-da, ekoturizm, sog'lomlashtirish turizmi, agro-turizm va gastronomik turizm kabi sohalarni rivojlantirish katta potentsialga ega. Masalan, Jayron ekomarkazi va Qizilqum cho'li sarguzasht va ekoturizm ixlosmandlari uchun jozibador joy bo'lishi mumkin. Mineral suv manbalaridan samarali foydalanish esa sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, raqamli texnologiyalarni turizmga tatbiq etish lozim.

Bugungi kunda global turizm sohasi raqamli xizmatlar orqali rivojlanmoqda. Buxoroning tarixiy maskanlari va diqqatga sazovor joylarini raqamli shaklda targ'ib qilish, virtual ekskursiyalar yaratish, onlayn bron qilish tizimini yo'lga qo'yish va ijtimoiy tarmoqlar orqali faol reklama qilish xalqaro sayyohlarni jalb etishda muhim rol o'ynaydi.

To'rtinchidan, turizm sohasida kadrlar tayyorlash va mahalliy aholining ishtirokini oshirish kerak.

Turizm sohasining rivojlanishi bevosita malakali mutaxassislarning mavjudligiga bog'liq. Mahalliy aholini turizm xizmatlariga jalb qilish, gidlar, mehmonxona va restoran xodimlarini tayyorlash, hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash orqali vohaning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shish mumkin.

Beshinchidan, ekologik barqarorlikni ta'minlash zarur.

Buxoro tarixiy merosining uzoq muddat saqlanishi uchun ekologik muhitni himoya qilish, tarixiy obidalarni saqlash va restavratsiya qilish bo'yicha uzluksiz ish olib borish lozim. Bundan tashqari, barqaror turizm tamoyillariga amal qilib, hududda chiqindilarni kamaytirish, yashil energiya manbalaridan foydalanish va ekologik toza transport vositalarini rivojlantirish orqali sayyohlik faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish mumkin.

Bundan tashqari hududning tabiiy-rekreatsion imkoniyatlarini ham inobatga olgan holda quyidagilarga diqqat qaratmoq lozim: Madaniy landshaftning ko'rinishi, tashkil etilish darajasi uni yaratuvchi xalqning barcha sohalardagi madaniyatidan xabar beruvchi indikatori bo'lib, madaniy landshaft atamasining ommalashuvi fanlararo integratsiyani ta'minlaydi, tabiat-jamiat qonunlarini chuqur bilish va unga amal qilishga undaydi.

Buxoro vohasi landshaftlarining hududiy rekreatsion- turistik tizimlari, ularning hozirgi holatini saqlab qolish va hududda rekreatsiya va turizmni istiqbolda rivojlantirish bo'yicha geotizimlarning rekreatsion-turistik imkoniyatlarini aniqlash hamda noyob tabiat yodgorliklarini muhofaza qilish choralarini kuchaytirishni taqazo etadi.

Landshaft haqidagi ta'limot landshaftlarning tabiiy resurslaridan samarali foydalanish uchun metodologik asos bo'la oladi. Bu esa o'z navbatida shakllanayotgan "landshaftlar resursshunosligi" ilmiy yo'nalishni rivojlantirish zarurligini taqozo qiladi.

Ekologik turizm hozirgi kunga kelib jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan turizm sohasiga aylandi. O'zbekistonda ekoturizm rivojlanishi tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni vatanimizga jalb etish, noyob o'simliklar va hayvonot dunyosini saqlash, ko'paytirish muammolarini hal qilishga, hamda mahalliy aholini ish bilan ta'minlab milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Ekoturizm faoliyatidan kelib chiqib, uni alohida muhofaza etilayotgan tabiiy hududlarda amalga oshirish katta ahamiyatga ega. O'zbekistonning tabiiy sharoiti va ularning ekologik holatini inobatga olib, turistik obyektlarni o'rganish va aniqlash, turistik yo'nalishlarni belgilash, ularning hududiylik va majmuaviylik jihatlaridan kelib chiqqan holda xizmat ko'rsatish sohasini yo'lga qo'yish shu kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonning alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarida byudjet kamomadi mavjud bo'lganligi sababli ekoturizmning iqtisodiy roli yuqori ahamiyatga ega. Shunisi ham muhimki ekoturizmning rivoji qimmat va keng infrastrukturasi talab etmaydi. Demak ekoturizm bo'lajakda kichik xarajatlar hisobiga, katta foyda keltiradigan manbaga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abbasov S.B., Yarashev Q.S., Badalov O'.B.. O'rta Zarafshon havzasini rekreatsiya-turistik resurslari, ulardan foydalanishning geografik asoslari va istiqbollari. Monografiya. – Samarqand: "SamDCHTI" nashriyoti", 2023. – 132 bet.
2. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. Toshkent., O'qituvchi, 1996.
3. Nurov U.N "Buxoro viloyati iqlimi va uning resurslari" Buxoro 1996.
4. Ergasheva M.K. , Isayeva M.N., Uzakova M.O. Rekreatsiya-turistik resurslardan oqilona foydalanish masalalari(Quyi Zarafshon okrugi misolida) Zamonaviy geografiyada innovatsion g'oyalar: Raqamli iqtisodiyot va GIS texnologiyalar Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya Qarshi 2024y 228-232 b

MILLIY HUNARMANDCHILIKNI DIVERSIFIKATSIYALASH ORQALI ISTE'MOLCHILARGA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Ruziyeva Gulnoz Fatilloevna
BuxDTU assistent-o'qituvchi,
gulnozfatilloevna@gmail.com

Annotatsiya. Maqola milliy hunarmandchilikni diversifikatsiyalashning xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishdagi rolini o'rganadi. Hunarmandchilik sohasidagi diversifikatsiya, bozor